



NEW TRENDS IN THE IMPLEMENTATION OF INFORMATION TECHNOLOGY CULTURE

Khabiba N. Oblomuradova

Associate Professor, PhD in Philosophical Sciences

Department of General Education and Culture

Tashkent State University of Law

h.oblomuradova@tsul.uz

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Information culture, social consciousness, digital society, transformation of values, social relations, virtual space, moral stability, social responsibility.

Received: 24.01.26

Accepted: 25.01.26

Published: 26.01.26

Abstract: The article analyzes new trends in the implementation of information culture from the perspective of social philosophy. It is argued that the expansion of digital communications and virtual space leads to the transformation of social consciousness and thinking. In addition, the role of information culture in ensuring moral stability and social responsibility is highlighted.

AXBOROT MADANIYATINI AMALGA OSHIRISHNING YANGICHA TENDENSIYALAR

Xabiba N. Oblomuradova

Dotsent, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,

Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrası,

Toshkent davlat yuridik universiteti,

h.oblomuradova@tsul.uz

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Axborot madaniyati, ijtimoiy ong, raqamli jamiyat, qadriyatlar transformatsiyasi, ijtimoiy munosabatlar, virtual makon, ma'naviy barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat.

Annotatsiya: Maqolada axborot madaniyatini amalga oshirishning yangicha tendensiyalari ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiyalar va virtual makonning kengayishi ijtimoiy ong hamda tafakkur transformatsiyasiga olib kelayotgani asoslab beriladi. Shuningdek, axborot madaniyatining ma'naviy barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashdagi o'rnini ochib beriladi.

НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В РЕАЛИЗАЦИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ

Хабиба Н. Обломуродова

*Доцент, доктор философии (PhD) по философским наукам,
Кафедра Общеобразовательные дисциплины и культура,
Ташкентский государственный юридический университет,
h.oblomuradova@tsul.uz
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Информационная культура, социальное сознание, цифровое общество, трансформация ценностей, социальные отношения, виртуальное пространство, духовная стабильность, социальная ответственность.

Аннотация: В статье анализируются новые тенденции реализации информационной культуры с точки зрения социальной философии. Обосновывается, что расширение цифровых коммуникаций и виртуального пространства приводит к трансформации социального сознания и мышления. Кроме того, раскрывается роль информационной культуры в обеспечении духовной стабильности и социальной ответственности.

Kirish. Axborot madaniyati – bu shaxsning axborotlashgan jamiyatda ongli, mustaqil va mas’uliyatli faoliyat yuritishini ta’minlovchi murakkab ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida talqin etiladi. U axborotni izlash, qabul qilish, tanlash, baholash va undan maqsadli foydalanish jarayonlarida namoyon bo’ladigan bilimlar, ko’nikmalar, qadriyatlar hamda axloqiy me’yorlar birligini ifoda etadi [1]. Shu ma’noda, axborot madaniyati texnik, raqamli ko’nikmalar, tanqidiy tafakkur, mediasavodxonlik, axborot etikasi va axborot xavfsizligi kabi ijtimoiy ahamiyatga ega komponentlarni ham o’z ichiga oladi [2].

Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va raqamli transformatsiya jarayonlari axborot madaniyati masalasini yangi falsafiy bosqichga ko’tarmoqda. Internet, sun’iy intellekt, katta hajmli ma’lumotlar va raqamli platformalar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borib, ijtimoiy ong, kommunikatsiya shakllari va ijtimoiy munosabatlarning mazmunini tubdan o’zgartirmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi sharoitida shaxsdan faqat bilimga ega bo’lish emas, balki uni tanqidiy tahlil qilish, ijtimoiy ma’nosi va oqibatlarini anglash ham talab etiladi. Shu jihatdan, axborot madaniyati ijtimoiy qarorlar qabul qilish, intellektual salohiyatni rivojlantirish va jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi muhim falsafiy omil sifatida namoyon bo’ladi.

Axborotni tanqidiy baholay olmaslik ijtimoiy ongning manipulyatsiyaga moyillashuvi, feyk axborotning tarqalishi hamda axborot xavfsizligiga tahdidlarning kuchayishiga olib keladi.

Bu esa shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda axloqiy muvozanatning buzilishi xavfini keltirib chiqaradi. Shu bois, axborot madaniyatini shakllantirish va uni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy jamiyat rivojlanishining strategik vazifalaridan biri sifatida baholanadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida axborot madaniyatini amalga oshirishning yangicha tendensiyalari shakllanmoqda. Ular qatoriga raqamli va mediasavodxonlikni ijtimoiy qadriyat sifatida qaror toptirish, axborot xavfsizligi madaniyatini mustahkamlash, ta'lim tizimida innovatsion axborot texnologiyalarini joriy etish hamda "umrbod ta'lim" konsepsiyasi asosida shaxsning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirib borish kiradi[. Ushbu tendensiyalarni ilmiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish, ularning nazariy asoslari va ijtimoiy ahamiyatini ochib berish ta'lim tizimi, davlat siyosatini takomillashtirish va jamiyatning intellektual taraqqiyotini ta'minlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning usullari

Mazkur tadqiqotda axborot madaniyatini shakllantirish va amalga oshirishning zamonaviy tendensiyalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o'rganildi. Tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil, kontent-tahlil, qiyosiy tahlil va hermenevtik yondashuv asosiy metodologik tamoyillar sifatida qo'llanildi. Ijtimoiy-falsafiy tahlil yordamida axborot makonidagi ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat va shaxs ongiga ta'siri, erkinlik, identitet, qadriyat va reallik kabi falsafiy kategoriyalar nuqtai nazaridan o'rganildi. Kontent-tahlil orqali TikTok, Instagram va Telegram kabi platformalarda yoshlar orasida mashhur media-kontentlar, ularning semantik tuzilishi va axborot berish uslublari tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil yordamida an'anaviy ijtimoiy munosabatlar va virtual muloqot o'rtasidagi farqlar ochib berildi, hermenevtik yondashuv esa yoshlar tomonidan ongli yoki ongsiz qabul qilinayotgan qadriyatlar va identifikatsiya shakllarini sharhlash imkonini berdi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, kontent-tahlil, qiyosiy tahlil hamda induktiv va deduktiv yondashuvlar metodlari qo'llanilib, axborot madaniyati tushunchasi va uning tarkibiy qismlari kompleks ravishda o'rganildi. Ushbu metodologik yondashuvlar axborot madaniyatini shaxs va jamiyatning axborot muhitida samarali, tanqidiy, xavfsiz va mas'uliyatli faoliyat yuritishini ta'minlovchi ko'p komponentli ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida o'rganishga imkon berdi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqot natijalari axborot madaniyatini amalga oshirishda quyidagi asosiy yangicha tendensiyalar mavjudligini ko'rsatdi:

1. So'nggi yillarda axborot madaniyati raqamli va mediasavodxonlik tushunchalari bilan chambarchas bog'lanmoqda. Axborotni tanqidiy baholash, manbalar ishonchliligini aniqlash va media kontentni tahlil qilish axborot madaniyatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

2. Kiberxavflar, shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi va axborot oqimlarida manipulyatsiya holatlarining ortishi axborot madaniyatini amalga oshirishda xavfsizlik omillarini birinchi o'ringa olib chiqdi. Ilmiy tadqiqotlarda axborot madaniyati kiberxavfsizlik bilimlari bilan uyg'un holda qaralmoqda.

3. Tadqiqotlar ta'lim axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy maydoni ekanligini ko'rsatadi. Onlayn ta'lim, raqamli platformalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish o'quvchi va talabalarda mustaqil axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirmoqda.

4. Axborot tez yangilanib borayotgan sharoitda axborot madaniyati bir martalik emas, balki uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon sifatida talqin etilmoqda. Bu tendensiya "lifelong learning" ("Umrbod ta'lim") konsepsiyasi bilan bog'liq holda keng yoritilgan.

Axborot madaniyati tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda ko'p qirrali va fanlararo fenomen sifatida talqin qilinadi hamda hozirga qadar yagona, umumqabul qilingan ta'rifga ega emas. Bu holat axborot madaniyatining axborotlashgan jamiyat rivoji, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy ong transformatsiyasi bilan uzviy bog'liqligi bilan izohlanadi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, axborot madaniyati shaxs va jamiyat o'rtasidagi axborotli o'zaro ta'sir jarayonlarini tartibga soluvchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Funksional (amaliy) yondashuv doirasida axborot madaniyati shaxsning axborot bilan ishlashga oid amaliy faoliyatini ifodalovchi ko'nikmalar majmui sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv axborotni izlash, tanlash, saqlash va undan foydalanish kabi faoliyat turlariga e'tibor qaratadi[3]. Biroq ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan mazkur yondashuv axborotning ma'naviy-axloqiy mazmuni va uning ijtimoiy oqibatlarini to'liq qamrab ololmaydi.

Kognitiv va tanqidiy yondashuv axborot madaniyatini ijtimoiy ong va tafakkur jarayonlari bilan bog'liq holda talqin etadi [4, 5, 6,]. Unga ko'ra, axborot madaniyati axborotni passiv qabul qilish emas, balki uni ongli ravishda anglash, tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyatini ifoda etadi. Ijtimoiy falsafiy jihatdan, bu yondashuv shaxsning axborot muhitida mustaqil sub'ekt sifatida shakllanishini ta'minlaydi hamda manipulyatsiya va soxta axborotga nisbatan intellektual barqarorlikni yuzaga keltiradi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv doirasida axborot madaniyati jamiyatda qaror topgan qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyat tizimi bilan bog'liq holda izohlanadi [7, 8, 9]. Bu yondashuvga ko'ra, axborot madaniyati axborotdan foydalanish jarayonida jamoat manfaatlari, ma'naviy me'yorlar va ijtimoiy barqarorlikni hisobga olishni taqozo etadi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, ushbu yondashuv axborot madaniyatining jamiyat hayotidagi tartibga soluvchi va integrativ funksiyasini ochib beradi.

Axborot xavfsizligiga yo'naltirilgan yondashuv axborot madaniyatini raqamli jamiyat sharoitida shaxs va jamiyatni turli axborot tahdidlaridan muhofaza qiluvchi ijtimoiy mexanizm sifatida talqin qiladi [10, 11]. U axborot muhitida xavfsiz xulq-atvor, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va kibertahdidlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishni qamrab oladi. Bu yondashuv axborot madaniyatining muhofazaviy va barqarorlikni ta'minlovchi funksiyasini namoyon etadi.

Kompleks (integrativ) yondashuv ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Unda axborot madaniyati shaxsning axborot bilan ishlash kompetensiyalari, tanqidiy tafakkuri, axborot etikasi, axborot xavfsizligi hamda ijtimoiy mas'uliyatining o'zaro uyg'un tizimi sifatida qaraladi. Bu yondashuv axborot madaniyatini shaxs va jamiyat o'rtasidagi axborotli munosabatlarni barqaror va ma'naviy jihatdan muvozanatli holda rivojlantiruvchi ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida talqin etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan axborot madaniyati shaxs va jamiyatning axborot muhitida samarali, tanqidiy, xavfsiz va ma'naviy mas'uliyatli faoliyat yuritishini ta'minlovchi ko'p komponentli ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalasini zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ustuvor strategik vazifalaridan biri sifatida baholashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari axborot madaniyatini amalga oshirish zamonaviy raqamli jamiyat rivojining muhim ijtimoiy-falsafiy talabi ekanini ko'rsatadi. Axborot hajmining keskin ortishi va raqamli texnologiyalarning jamiyat hayotiga keng joriy etilishi shaxs va jamiyat o'rtasidagi axborotli munosabatlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Bu sharoitda axborot madaniyati shaxsning axborotni tanqidiy anglash, uning ijtimoiy mazmuni va oqibatlarini baholash hamda maqsadli foydalanish qobiliyatlarini o'zida mujassam etgan kompleks ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli va mediasavodxonlik axborot madaniyatining asosiy poydevori bo'lib, ijtimoiy ongni manipulyatsiya va soxta axborot ta'siridan muhofaza qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi madaniyati shaxs va ijtimoiy institutlar darajasida axborot muhitini muhofaza qilish, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot madaniyatini rivojlantirishda ta'lim tizimi ijtimoiy ongni shakllantiruvchi asosiy institut sifatida alohida o'rin tutadi. Ta'lim jarayoniga innovatsion axborot texnologiyalarini joriy etish shaxsning mustaqil fikrlashi, axborotni tahlil qilishi va ijtimoiy voqelikni anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, "umrbod ta'lim" konsepsiyasi axborot madaniyatining uzluksiz takomillashuvini ta'minlovchi muhim ijtimoiy-falsafiy omil sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, axborot madaniyatini amalga oshirishga kompleks va tizimli yondashuv jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, axborot xavflarini kamaytirish hamda barqaror raqamli taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv axborot madaniyatini shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy muvozanatni saqlovchi va ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi strategik ijtimoiy-falsafiy qadriyat sifatida qarash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurakhmonovich A.X. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 360-362.
2. Farmonovich T.M. “Media savodxonlik” va “axborot madaniyati”–raqamli kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida //Modern education and development. – 2025. – T. 27. – №. 4. – C. 317-320.
3. Hasanboy A. Axborot madaniyatida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 57. – №. 1. – С. 325-329.
4. Elbek Qaxarov. (2025). Yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari. «ACTA NUUZ», 1(1.1), 110-112.
5. Tadjibayeva, D.O. (2025). Initiative as A Personal Quality. Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals, 5(03), 12-15.
6. Qaxarov, E. (2024). Yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish: ijtimoiy-falsafiy tahlil. News of the NUUZ, 1(1.1), 101-105.
7. Kakharov, E.F. (2024). Issues of Development of Legal Culture of Youth in the New Uzbekistan. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 5(1), 27-30.
8. Tadjibayeva, D.O. (2023). Mafkuraviy faoliyatda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(7), 471-477.
9. Ozodovna, T.D. (2021). “Mass culture” as the most dangerous weapon of ideological pressure.
10. Tadjibaeva, D.O. (2023). Modern Problems of Ensuring National Security in the Information Sector. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(8), 32-36.
11. Qobiljonova Mavludaxon Qobiljon qizi. (2025). Ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlari va tahdidlari: muammolar, oqibatlar va yechimlar. Tadqiqotlar, 60(2), 312-313.